

Q'UVCHILARNI MEHNAT TA'LIMINI TASHKIL QILISH JARAYONIDA KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH USULLARI

*Normurodova Bibinor, Toshkent amaliy fanlar universiteti
"Pedagogika" kafedrası katta o'qituvchisi*

METHODS OF ORIENTING STUDENTS TOWARDS A PROFESSION IN THE PROCESS OF ORGANIZING LABOR TRAINING

*Normurodova Bibinor, senior lecturer of the Department of
"Pedagogy" at Tashkent University of Applied Sciences*

МЕТОДЫ ОРИЕНТАЦИИ СТУДЕНТОВ НА ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЙ ПУТЬ В ПРОЦЕССЕ ОРГАНИЗАЦИИ ТРУДОУЧЕБНОГО ОБУЧЕНИЯ

*Нормуродова Бибинор, старший преподаватель кафедры
"Педагогика" Ташкентского университета прикладных наук*



<https://orcid.org/0009-0001-6385-5191>

e-mail:

normurodovabibinor@gmail.com

Annotatsiya: Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy maqsadi, yosh avlodni mustaqil kasb tanlashga tayyorlash, qiziqish va qobiliyatlarini anglashga o'rgatishdan iborat. Ushbu maqola yoshlarni kasbiy qiziqishlarini aniqlash, ularni kasbga yo'naltirishda ta'lim uzviyligini ta'minlash va kasb tanlashlarida yuzaga keladigan muammolarga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: maktab, o'quvchi, kasb, mehnat, to'garak, kasbiy axborot, o'smir, kasb, diagnostika, psixologik tajriba, mehnat ta'limi, metod, faoliyat.

Abstract: The main purpose of professional orientation of young people is to prepare the younger generation for independent career choice, to teach awareness of their interests and abilities. This article will focus on the problems that arise in determining the professional interests of young people, ensuring educational continuity in their professional orientation and career choice.

Keywords: school, student, profession, work, circle, professional information, teenager, profession, diagnosis, psychological experience, labor education, method, activit.

Аннотация: Основной целью профессиональной ориентации молодежи является подготовка подрастающего поколения к самостоятельному выбору профессии, обучение осознанию своих интересов и способностей. Данная статья будет посвящена проблемам, возникающим при определении профессиональных интересов молодых людей, обеспечении образовательной преемственности в их профессиональной ориентации и выборе профессии.

Ключевые слова: школа, ученик, профессия, труд, кружок, профессиональная информация, подросток, профессия, диагностика, психологический опыт, трудовое воспитание, метод, деятельность.

KIRISH. Ta'lim mazmunining zaruriy o'zagi hisoblanmish ta'lim standarti mamlakat hududidagi turli o'quv muassasalarida ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi, o'quv yuklamalari me'yoriga keltiriladi, o'quvchilar bilimini baholash mezonlari ishlab chiqiladi. O'quvchi ta'lim standarti bilan cheklanishi mumkin yoki bilimlarni chuqurroq egallash maqsadida mustaqil ravishda kengroq, chuqurlashtirilgan bilim olishga va yuqori reyting bali to'plash huquqiga ega. Natijada, qiyin yoki o'quvchi xush ko'rmaydigan predmetni o'rganishda unda standartda belgilangan me'yor bilan cheklanishga imkon beriladi. Bunda o'quvchi o'zining qiziqishi, layoqati, qobiliyatini ro'yobga chiqarish, o'zi uchun eng maqbul yo'lni ongli va mustaqil tanlash imkoniga ega bo'ladi. Mehnat ta'limining davlat ta'lim standartlari o'quv-tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari uchun majburiy tayyorgarlikka qo'yiladigan talablarning ochiq bo'lishini nazarda tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Ta'lim oluvchilar uchun shakl va mazmun jihatidan tushunarli tarzda ifoda qilingan mazkur talablar o'quvchilar va ularning otalariga oldindan ma'lum qilinadi. "Kadrlarni tayyorlash bo'yicha milliy dastur"da boshlang'ich tayanch va o'rta umumta'lim bosqichlari asosan, umum mehnat va kasb ta'limini chuqurlashtirib o'rganishga qaratilishi ushbu sohaning hozirgi davrda yanada dolzarbligini ko'rsatadi. Hozirgi kunda mehnat ta'limi o'zining ilmiy, nazariy va amaliy, moddiy-texnik, ijtimoiy pedagogik muammolarini hal etishda, uning an'anaviy mazmunini isloh qilishda qator nomutanosibliklar va ziddiyatli holatlar sodir bo'lmoqda:

- yangi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy tuzimda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar bilan mehnat ta'limining ilmiy-uslubiy, pedagogik va moddiy-texnik jihatdan istiqbol talablari darajasida ma'muriy ta'minlanishining nomutanosibligi, hamda Respublikada ta'lim jarayonining moddiy-texnik ta'minotini ishlab chiqaruvchi maxsus korxonalarning yetishmasligi;

- mehnat ta'limini amalga oshirishning asosiy qismi bo'lgan umumta'lim bo'g'ini bilan uzluksiz ta'limning boshqa bo'g'inlari-maktabgacha tarbiya, o'rta maxsus va oliy ta'lim hamda keyingi bosqichlari o'rtasida uzviylikning ta'minlanmaganligi; mehnat ta'limining hozirgi kundagi an'anaviy mazmuni, maqsadi, shakli, vositalari va uslublarida respublikamizning milliy, etnik, hududiy, tarixiy xususiyatlari va sharqona tafakkur mezonlarining aks etmaganligi;

- mehnat ta'limining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini hisobga olib, uni amalga oshirish mexanizmlarining pedagogik, psixologik, fiziologik va didaktik asoslarining ishlab chiqilmaganligida ko'rishimiz mumkin.

1-4-sinfidagi barcha fanlarni o'qitish, o'quvchilarni mehnat qilish va kasb tanlashi bilan uzviy bog'lab tayyorlashdan iborat. 1-4-sinfda mehnat ta'limi fani mazmuni shartli ravishda umumiy mehnat ta'limi tayyorgarligi uning mazmuniga mavjud bo'lgan kasblar atroflicha ma'lumotlari bilan tanishilgan hamda shu yoshga maxsus tayyorgarlik qismlaridan iborat. Bu qismlar har bir dars va mashg'ulotlarning tarkibiga singib ketgan bo'lib, ularni o'qituvchi va uslubchilar tomonidan ilmiy-uslubiy nuqtayi nazardan hisobga olgan holda, taxmin qilib berish, mehnat ta'limi mashg'ulotlarining aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishini ta'minlash uchun zarur mehnat ta'limi darslarini 1-4-sinfda umumiy va badiiy mehnat kursi xalq amaliy bezak san'atlari sohasidagi ayrim kasblar asoslari bilan tanishtirishni nazarda tutadi. Bu kurs bo'yicha mashg'ulotlar mazmuni bajarilayotgan mehnat jarayonining ajralmas qismi bo'lgan amaliy eskizlar, jadvallar, rasmlar, naqshlar ishlash va ayrim dizaynerlik qoidalarini o'rgatishdan iborat. Shu nuqtayi nazarga asoslangan holda 1-4-sinf mehnat ta'limi o'quv fani tarkibiga quyidagi kurslari kiradi: Umumiy va badiiy mehnat; Amaliy ishlar tayyorlash tartibi texnologik asoslari. Ushbu yo'nalishning har biri yuzasidan quyidagi mavzular bo'yicha o'zaro uyg'unlashtirilgan nazariy bilimlar beriladi va amaliy ish ko'nikmalari shakllantiriladi. Milliy hunarmandchilik kasblari bo'yicha umumiy ma'lumotlar va o'zaro turdosh kasblar bo'yicha

dastlabki tayyorgarlik hamda ularni 5-sinfda o'zaro uyg'unlashtirilgan holda integratsiyalashtirib o'qitish jarayonida amalga oshirib boriladi. 1-4-sinfda ta'lim oluvchilarning ijtimoiy dunyoqarashlarini kengaytirgan holda olib boriladi.

O'quvchilarni mehnatga tayyorlash jarayonida kasb-hunarga yo'naltirishni yanada kuchaytirish, ularni zamonaviy ishlab chiqarish asoslari, yog'ochga, metallga va gazlamaga ishlov berish texnologiyasi, pazandachilik asoslari, qishloq xo'jalik asoslari, badiiy mehnat texnologiyasi va mashina elementlari yo'nalishlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallash ko'zda tutiladi. Maktablarda mehnat ta'limi mazmuni asosan quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

1. I-IV sinflar keng ko'lamda ishlatiladigan turli xil oddiy materiallar (qog'oz, rangli qog'oz, karton turlari, kalka, porolon, penoplast, paxta va matolar qiyqimlari, plastilin, simlar va boshqalar) bilan tanishtirish ulardan o'yinchoqlar va oddiy buyumlar yasash, xalq hunarmandchiligi to'g'risida boshlang'ich tushunchalar berish, o'quvchilarini o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga odatlantirish, uy-ro'zg'or buyumlarining kichraytirilgan nusxalarini, modellar, maketlarni tayyorlashni, turli xil shakllar mehnat ta'limi darslariga ajratilgan o'quv soatlarini yana bir soatga oshirish maqsadga muvofiqdir, chunki 1 soat davomida o'quvchilarga bajaradigan ishlari to'g'risida umumiy nazariy ma'lumotlar berilsa, keyingi soatda esa aytilgan ish harakat usullari amalda bajariladi, buyumlarni yasash usullari, uslublari o'rganiladi.

1. V-IX sinflarda mehnat ta'limi va kasblarga yo'naltirish 5 asosiy yo'nalish bo'yicha tashkil etiladi va 5-7 sinflarda haftasiga 2 soat, 8-9 sinflarda haftasiga 1 soat mehnat ta'limi darslari o'qitiladi. Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi. Metallga ishlov berish texnologiyasi. Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi. Pazandachilik asoslari qishloq xo'jalik asoslari. Mehnat ta'limi tamoyillari ta'lim berish nazariyasini boshlang'ich qoidalari bo'lib, ular o'quv ishlarining mazmunini uning tashkiliy formalarini va o'qituvchi mehnat darsini tayyorlash va o'tkazish vaqtida amal qilish lozim bo'lgan metodlarini belgilab beradi. Mehnat ta'lim tamoyillari o'quvchilarning tarbiya maqsadlaridan kelib chiqadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Yana shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, ta'lim jarayoni mohiyati turli olimlar tomonidan turlicha tushunishganligi sababli didaktikaning ayrim tamoyillarini talqin qilish ham shunnigdek ularni bayon qilish tuzilishi ham turlicha bo'ladi. Mehnat ta'limi tamoyillarini bayon qilishda uni juftlab o'rganish prinsipini to'g'ri deb hisoblamoq kerak. Shunday qilganda mehnat ta'limi didaktikaning ayrim tamoyillari o'rtasidagi muayyan obyektiv mavjud aloqani ko'rsatish imkoniyati tug'iladi. Didaktika pedagogikaning ta'lim jarayonini umumiy qonuniyatlarini o'rganadigan qismidir. "Didaktika" grekcha so'z bo'lib, "saboq bermoq" so'zidan kelib chiqqan. So'zma-so'z tarjima qilinganda didaktika ta'lim nazariyasi demakdir. Didaktika xususiy metodikalar bilan bog'langan holda barcha o'quv fanlari uchun umumiy qonun-qoidalarini belgilab beradi. Mehnat ta'limini o'qitish uslubiyati fanidan tamoyillar mehnat darsi jarayonida qanday tatbiq etilishini ko'rib chiqamiz. Ular quyidagicha: onglik va faollilik, ilmiylik sistemaliligi, nazariya bilan amaliyot birligi; ta'lim va tarbiya birligi, ko'rsatmalilik, yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, izchillik, politexnik, mehnat ta'limi o'qituvchisi. Shuni unutmaslik kerakki, har qanday amaliyot mashg'ulotida yuqorida sanab o'tilgan mehnat ta'limi tamoyillaridan bitta yoki ikkitasini emas, balki o'quvchilarga o'quv materialini sifatli va to'la yetkazib berish imkonini beradigan didaktik tamoyillar sistemasiga amal qilinadi. Mehnat ta'limi o'qituvchisining mahorati mehnat darsida barcha didaktik ta'moyillardan ustalik bilan foydalani bilishi va ularni to'g'ri bog'lab olib borishida namoyon bo'ladi.

XULOSA. Materialni og'zaki bayon qilish bu o'quv materialni shunday bayon qilishni nazarda tutadiki, buning natijasida yangi texnika va mehnat tushunchalari ochib beriladi. Mehnat va texnologiya jarayonlari haqidagi texnik iqtisodiy ma'lumotlar o'rganib chiqiladi, umuman mehnat usullari va topshiriqlarini bajarish yuzasidan tushuntirishlar beriladi. Bu metod asosida o'qituvchining jonli so'zi yotadi. Bu esa o'quvchilarga kuchli ta'sir ko'rsatadi ularning tasavvurlarini boyitadi. Ijodiy fikr

yuritishga undaydi, u ko'pgina shaxsiy ijobiy sifatlarning tarkib toptirishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. X.Sanaqulov, D.Xodiyeva. Mehnat o'qitish metodikasi.–T.: O'qituvchi, 2010.
2. A.J.Jo'raev. Tarbiyaviy darslarni o'tish. –T.: O'qituvchi, 1994.
3. A.K.Munavvarov. Oila pedagogikasi. – T.: O'qituvchi, 1994.
4. U.Mahkamov. Axloq-odob saboqlari. – T.: Fan, 1994.
5. M.Haydarov. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning mehnat tarbiyasida xalq an'analaridan foydalanish. – T.: Yozuvchi, 1995.
6. O.To'raeva. Odobnoma. – T.: O'qituvchi, 1995.
7. J.Yo'ldoshev. Ta'limimiz istiqloli yo'lida. – T.: Sharq, 1996.
8. Z.Qo'ziyev. Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish. – T., 1997.

